ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich

Andijom davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: shamsiddinovbotir88@mail.ru

Tel: +998916079189

YOSHLARDA TAQLITCHANLIK VA SPONTANLIK ORASIDAGI MUVOZANATNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar shaxsiy rivojlanishida muhim bo‘lgan ikki psixologik hodisa — taqlitchanlik va spontanlik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ijtimoiy va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Taqlitchanlik ijtimoiylashuv jarayonida muhim adaptiv mexanizm sifatida namoyon bo‘lsa, spontanlik shaxsning ichki erkinligi, ijodkorligi va autentikligini ifodalovchi omil hisoblanadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, referent guruhlar va ommaviy madaniyatning yoshlar xulq-atvoriga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, taqlid va spontanlik o‘rtasidagi muvozanatning psixologik sog‘lomlik, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy identifikatsiya jarayonidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar psixologiyasi, taqlitchanlik, spontanlik, ijtimoiy ta’sir, shaxsiy identifikatsiya, psixologik sog‘lomlik, ijtimoiy tarmoqlar

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-психологический анализ соотношения подражательности и спонтанности в развитии личности молодежи. Подражательность выступает как важный механизм социализации и адаптации, тогда как спонтанность отражает внутреннюю свободу, креативность и аутентичность личности. Особое внимание уделяется влиянию социальных сетей, референтных групп и массовой культуры на поведение и самооценку молодежи. Обосновывается значимость баланса между подражанием и спонтанностью для формирования психологического благополучия, самостоятельности и устойчивой личностной идентичности.

Ключевые слова: психология молодежи, подражательность, спонтанность, социальное влияние, личностная идентичность, психологическое благополучие, социальные сети

Abstract: This article presents a social and psychological analysis of the balance between imitation and spontaneity in youth personality development. Imitation is considered an adaptive mechanism that facilitates socialization, while spontaneity reflects inner freedom, creativity, and personal authenticity. The study highlights the impact of social media, reference groups, and mass culture on young people’s behavior and self-perception. Furthermore, the importance of maintaining a balance between imitation and spontaneity for psychological well-being, independent decision-making, and the formation of a stable personal identity is emphasized.

Keywords: youth psychology, imitation, spontaneity, social influence, personal identity, psychological well-being, social media.

Zamonaviy ijtimoiy hayotda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgan bir vaqtda, ushbu tarmoqlarda namoyon bo‘layotgan yolg‘on imidjlar, maqtovga asoslangan kontentlar va noodatiy taqlitchan harakatlar yoshlar ongiga chuqur singib bormoqda. Bu holat ularning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga o‘z yechimini topish qobiliyatini zaiflashtiradi. Shu mazmunda yoshlarga bunday asossiz yolg’on imidjlarni yaratishdan saqlanish maqsadida ularni hayotdagi turli vaziyatlarga erkin, topqir va kurashuvchan qilib ijtimoiy hayotga tayorlash zarur. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda "ideal hayot", "muvaffaqiyatli inson", "go‘zallik standarti" kabi yolg‘on imidjlarni o‘zlashtirishga urinadi. Bu esa ularning real hayotdagi qiyin vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmasligiga olib keladi. Ularda taqlitchanlik ortib boradi va o’z menlarini yo‘qatib boradilar.

Taqlitchanlik – boshqalarni ko‘r-ko‘rona nusxalashga asoslangan xatti-harakat bo‘lib, ayniqsa o‘smirlar va yoshlarda shaxsiy o‘zligini topish davrida kuchliroq namoyon bo‘ladi. Ular ko‘pincha ijtimoiy me’yorlarga emas, balki ommaviy ma’qullangan (ko‘p layk va izoh olgan) namunalarni takrorlaydi. Yoshlar orasida ko’r ko’rona taqlitchanlikni kamaytirishda spontan harakatlar ijobiy natija uzaga keltiradi.

Aynan yoshlarni psixologik sog’lom hayotga olib chiqishda spontan harakatlar ahamiyatlidir.

Spontanlik – bu insonning oldindan rejalashtirmasdan, ichki ehtiyoj va sezgi asosida harakat qilishi, ijodiy yondashuvi va o‘zini erkin ifodalashidir. Psixodrama asoschisi Jeykob Levi Moreno bu tushunchani insonning ijodkorligi va moslashuvchanligining asosiy belgisi deb hisoblaydi. Spontanlik rivojlanmagan yoshlar stressli yoki noaniq vaziyatlarda noto‘g‘ri va tahlikali yo‘llarni tanlaydi.

Spontanlik Jeykob Levi Moreno (psixodramaning asoschisi) tomonidan ijtimoiy moslashuv va ijodiy yechim topish qobiliyati sifatida tavsiflangan. Unga ko‘ra, odam qanchalik spontan bo‘lsa, hayotiy muammolarga shunchalik oson moslashadi. [5-154-157 b]

Spontanlikning ahamiyati shundaki u ijtimoiy hayotda ijobiy muloqot ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi va turli ijtimoiy vaziyatlarda shaxsni o’zini qanday tutishni, real va noreal hodisalarga munosabat bildirishga ta’sir ko’rsatadi. Bunda shaxsda quyidagi komponentlarga ta’sir ko’rsatadi:

-moslashuvchanlik: Kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri javob berish imkoniyatini oshiradi.

-ijodiy fikrlash: O‘zining va boshqalarning hissiyotlariga mos ravishda yangi harakat usullarini topishga yordam beradi.

-shaxsiy rivojlanish: Inson o‘zining eski shablonlari bilan cheklanmaydi, balki yangicha yondashuvlarni ishlab chiqadi.

Biz ilmiy maqolamiz doirasida yoshlarni ijtimoiy vaziyatlarda o’zlarini qanday tutishlarini o’rganish maqsadida ekperementlar olib bordik. Bunda respodentlar 128 nafar 14-21 yoshdagi respodentlar (58 nafar erkak, 70 nafar ayol) ishtirok etishdi. Ulardan spontanlik darajasini o‘lchash testi (Moslashgan psixodrama usuli asosida), ijtimoiy taqlid darajasi so‘rovnomasi, stressga nisbatan chidamlilik testi o’tkazildi.

Ishtirokchilarga rejasiz vaziyat (masalan, jamoat joyida janjal yoki kutilmagan muammo) taqdim etiladi va u qanday javob berishini erkin namoyon etishi so‘raladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ishtirokchilardan spontan javob berganlar stressni yengil o‘tkazgan. Taqlid asosida harakat qilganlar chalkashlikka tushgan yoki passiv bo‘lganliklari aniqlandi. Quyida 128 nafar ishtirokchi ma'lumotlari asosida tuzilgan korrelyatsion jadval keltirilgan. Jadvalda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi ko‘rsatilgan (-1 kuchli salbiy, +1 kuchli ijobiy bog‘liqlikni anglatadi):

1-Jadval

O‘zgaruvchilar	Spontanlik darajasi	Ijtimoiy taqlid	Stressga bardoshlilik	jodiy qarorlar soni
Spontanlik darajasi	1.00	-0.91	+0.93	0.94
Ijtimoiy taqlid	-0.91	1.00	-1.00	0.88
Stressga bardoshlilik	+0.93	-1.00	1.00	0.89
Ijodiy qarorlar soni	+0.94	-0.88	+0.89	.00

Korrelyatsion tahlil orqali to'rta asosiy psixologik omil o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi o‘rganildi:

Spontanlik darajasi ↔ Ijodiy qarorlar soni: +0.94 – kuchli ijobiy bog‘liqlik. Bu shuni anglatadiki, spontanligi yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘proq ijodiy qarorlar qabul iladi.

Ijtimoiy taqlid ↔ Stressga bardoshlilik -1.00 – mukammal salbiy korrelyatsiya. Taqlid darajasi oshsa, stressga bardoshlik darajasi keskin tushadi.

spontanlik ↔ Stressga bardoshlilik: +0.93 – yuqori darajadagi ijobiy bog‘liqlik. Spontan yoshlar stressli vaziyatda o‘zini yaxshi tutadi.

Ijtimoiy taqlid ↔ Ijodiy qarorlar -0.88 – yaqqol salbiy bog‘liqlik. Taqlidga moyil yoshlar o‘ziga xos yechim topa olmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, spontanlik shunchaki erkinlik emas, balki insonning shaxsiy tayyorgarligi, hissiy yetukligi va ijtimoiy moslashuvchanligining belgisi hisoblanadi. Yoshlar o‘zini erkin tutishga va muammolarga ijodiy qarashga o‘rgansa, u yolg‘on imidjlarga ergashish ehtiyoji kamayadi.

Agar terapevtik psixodrama mashg‘ulotida ishtirokchi o‘zining bolaligidagi og‘riqli vaziyatni qayta sahnalashtirishda erkin harakat qilsa, u o‘zining oldingi fikrlash tarzidan chiqib, yangi yondashuvlarni sinab ko‘radi. Bu esa hissiy o‘sishga yordam beradi. shu maqsadda ishtirokchilar orasidan taqlitchanlikga beriluvchilarini tanlab olinib ular bilan amaliy mashg’ulotlar olib borildi.

Psixodrama orqali spontanlikni rivojlantirish uchun spontanlikni rivojlantiruvchi treninglar olib borildi va quyidagi mashg’ulotlar o’tkazildi:

- “Kecha va bugun” (o‘tmishdagi noxush holatni bugungi tajriba bilan almashtirish)
- “Rollar almashinuvi” (qahramonlar o‘rniga kirish).

Natijada ishtirokchilarning 70% spontanlik testlarida yuqori ball oldi. stressga chidamlilik 30% ga oshdi, taqlitchanlik esa 42% ga kamaydi va ijtimoiy fikrdan mustaqil qaror qabul qilish salohiyati kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on ideallarni tanqidiy qabul qilishga o‘rgatish lozim va maktab va oliy o‘quv yurtlarida spontanlikni rivojlantiruvchi treninglar joriy etilishi yoshlarni kelajakda ijtimoiy hayotga erkin harakat qilishga olib keladi.

Olib borgan ilmiy tadqiqotimizdan kelib chiqib quyidagi ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Ta'lim muassasalari va psixologik markazlar uchun :

- Dars jarayonlariga spontanlikni rivojlantiruvchi faoliyatlarni kiritish.
- Ijodiy fikrlash va stressni boshqarish bo‘yicha maxsus fanlar yoki modul kurslar tashkil etish.

Ota-onalar uchun:

- Farzandlarining mustaqil qarorlarini quvvatlash.
- Har doim nazorat qilish emas, balki hayotiy vaziyatlarga o‘zi yechim topishga imkon berish va Ota-onalar va murabbiylar bolalarga mustaqil harakat qilish, fikrlash va xatolarni tan olishga sharoit yaratishi zarur.

Yoshlar uchun:

- Har qanday ijtimoiy trend yoki ko‘rsatma harakatni tanqidiy tahlil qilish.
- O‘z holatini anglash va muammoga o‘z yo‘lini izlash orqali chinakam o‘sishga erishish.

ADABIYOTLAR.

1. Личко А.Е. Психологические тренинги с подростками. – М., 2003.

2. Лейн Г. Психодрама: теория и практика. – М., 1994.

3.Ли Д. Практика группового тренинга. – СПб.: Питер, 2001. – 224 с.

4. Ismoilova N.Z., Abdullaeva D.U. Psixologik trening. – Toshkent: 2010.

5. Зайцева Т.В. «Теория психологического тренинга. Психологический тренинг как инструментальное действие». – СПб.: М. Смысл, 2006.

4. Фромм Э. Иметь или быть? Киев, 1998.

5. Холмогорова, В.М. Психологические условия нравственного развития дошкольников [Текст]: дис. ... канд. психол. наук – М., 2001. – 178 с.

6. Чехлатый Е. И. Личностная и межличностная конфликтность и копинг-поведение у больных неврозами и их динамика под влиянием групповой психотерапии: Автореф. дисс.... к. м. н. - СПб. - 1994. - 25 с.185. Чудновский, В.Э. О некоторых «болевых точках» становления личности [Текст] // Психологический журнал. – 2006. – №3. – Т.27. – С. 5-17.

7. Шавырина, А.А. Влияние детско-родительских отношений на проявление негативизма и упрямства у детей старшего дошкольного возраста [Текст]: дис. ... канд. психол. наук / А.А. Шавырина. – М., 2012. – 150 с.

8. Шакарова, М.А. Анализ влияния структуры сюжета и содержания культурных текстов на развитие сюжетно-ролевой игры современных дошкольников (на примере мультипликационных сериалов) [Текст]: дис. … канд. психол. наук / М.А. Шакарова. – М., 2012. – 144 с.